Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA “ANDISHA” KONSEPTINING SEMANTIK MA’NOLARI

Yunusova Dilsuz Toxirovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: **Ziyotova Surayyo Erkin qizi**
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20561441

Annotatsiya. Mazkur maqolada konsept termini, til va madaniyatda uning ahamiyati batafsil yoritilib, “andisha” konseptining xalq maqollaridagi semantik maydoni, strukturaviy-ma’noviy xususiyatlari va milliy-madaniy tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida paremiologik birliklar tarkibidagi “andisha” leksemasi ijobiy hamda salbiy baho semalarining oppozitsiyasi tadqiq qilingan.
Kalit so‘zlar: konsept, andisha, paremiologiya, maqol, lingvokultologiya, semantika, mentalitet, kognitiv tilshunoslik, ijobiy baho semasi, salbiy baho semasi.

Abstract. This article sheds light in detail on the term concept and its significance in language and culture, analyzing the semantic field, structural-semantic features, and national-cultural nature of the concept of "andisha" within folk proverbs. Throughout the study, the opposition between the positive and negative evaluative semes of the lexeme “andisha” within paremiological units is investigated.
Keywords: concept, andisha, paremiology, proverb, linguoculturology, semantics, mentality, cognitive linguistics, positive evaluative seme, negative evaluative seme.

Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik doirasida lisoniy birliklarni milliy madaniyat, mentalitet va milliy dunyoqarash bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganish etakchi o‘rin egallamoqda. Lingvistik tushuncha sifatidagi konsept biz dunyo haqida fikr yuritishimizga yordam beradigan birliklarni va ong modelini obyektivlashtirgan holda so‘zning umumlashgan obrazini yaratadigan mental hosilalarni ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Konsept lotinchadagi conceptus “tushuncha” so‘ziga taqlidan yaratilgan so‘z bo‘lib, concipere “kurtaklash”, ya’ni, so‘zma-so‘z olganda: “tushuncha, kurtak” demakdir[1]. Tushunchalardan farqli ravishda konseptlar nafaqat fikrlanadi, shu bilan birga boshdan kechiriladi ham, ular alohida shaxs va umuman bir tildagi hamjamiyatning hissiyotlari, simpatiya va antipatiyalari bilan bog‘liqdir. Tilda olamni o‘zlashtirish, anglash vositasi xizmatini o‘tovchi konseptlar asosida til egalari ongida olamning lisoniy manzarasi shakllantiriladi[2]. “Konsept” – bu tushunchalar yig‘indisidir, ular nutqda o‘zlashtiriladi, bu aqlning hal qiluvchi bosqichida u yoki bu predmetni fikr-mulohazalarning bog‘liqligidir[3]. Hozirgi gumanitar bilim sohasiga “konsept” so‘zini nazariy termin sifatida rus olimi S.A.Askoldov (1870-1945) birinchilardan bo‘lib olib kirgan. U o‘zining 1928-yilda e’lon qilingan “Konsept va so‘z” maqolasining sarlavhasidayoq, ehtimol, konseptning verbal ifodalanishi mavzuni bejiz qayd etmagan. Zeroki, konsept nuqt orqali shakllanadi. Konseptning asosiy belgisi sifatida S.A.Askoldov “o‘rnini bosishlik funksiyasi”ni qayd qiladi. “Konsept fikriy hosila bo‘lib, u bizga fikrlash jarayonida aynan bir turdagi nihoyatda ko‘plab predmetlarning o‘rnini bosadi”[4]. U kategoriyani va konseptuallashgan jarayonlarini tushuntirishga va aniqlashga asoslanadi. U tushunchalar tizimining tilda aks etgan ko‘rinishidir. Bizningcha, har bir til o‘z konsept tizimiga ega, chunki har bir til egasi borliqdan kelayotgan axborot

[1] Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. - М., 1997. – С. 43.
[2] Исмоилов Ғ. Оламнинг фразеологик манзарасида “инсон” концепти // Ўзбек тили ва адабиёти. –№6. - Тошкент, 2015. - Б.22.
[3] Неретина С. С. Петр Абеляр. Тео-логические трактаты. - М., 1995. - С. 119.
[4] Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесностиь: Антология/ под. ред. В.П. Нерознака. -М.,1997. – С. 4.

oqimini bevosita qabul qiladi, strukturaga soladi, tasnif qiladi va interpretatsiya qiladi. N.D.Arutyunova esa konsept – bu milliy an'ana, folklor, din, hayotiy tajriba, san'at obrazlari, his-tuyg'ular va qadriyatlar tizimlarining o'zaro harakati natijasi bo'lgan oddiy falsafa tushunchasidir. Konseptlar «inson bilan olam o'rtasida vositachilik qiladigan o'ziga xos madaniy qatlam"ni hosil qiladi[5]. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zlarning lug'aviy ma'nolari asosida, shu bilan birga shaxsiy hamda xalqning madaniy-tarixiy tajribasi negizida vujudga keladi. Bunday tajriba qanchalik boy, konsept doirasi qanchalik keng bo'lsa, so'zning, konseptning barcha jihatlarini aks ettiradigan hissiy aurasi ham shunchalik keng bo'ladi. Shuningdek, konsept - bu "madaniy boyliklar ijodkori" emas, balki insonning madaniyat ichiga kirishida va ayrim hollarda unga ta'sir qilishida muhim vosita sanaladi. Konsept muayyan etnosning ma'naviy-ruhiy tajribasini, qadriyatlar tizimini va falsafiy dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Tilshunoslikda lingvokulturologiya yangi yo'nalish bo'lishiga qaramay, xorij tilshunosligida S.A.Askoldov, Ye.S.Kubryakova, G.G.Slishkin, N.D.Arutyunova, Z.X.Bijeva, A.Vejbiskaya, S.G.Vorkachev, R.R.Zamaletdinov, V.V.Kolesov, S.X.Lyapin, V.P.Neroznak, M.V.Pimenova, Ye.V.Sergeyeva, Yu.S.Stepanov, A.P.Babushkin, G.I.Berestnev, R.Jekendoff, V.G.Zusman, Dj.Layonez, D.S.Lixachev, R.Pavileniye, V.N.Teliya, V.A.Maslova[6] va boshqalar til va madaniyat munosabati, unda konseptning o'rni borasidagi mulohazalarini bildirishgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida konseptual tahlil va lingvokultologiya muammolari Sh.Safarov, M.Yo'ldoshev, N.Mahmudov, A.Mamatov, D.Xudoyberganova kabi tilshunoslar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Bu esa bir qator dissertatsiya yozilishiga fundamental baza vazifasini o'tadi.

O'zbek milliy muloqot xulq-atvori va qadriyatlar tizimida o'ziga xos o'rin tutadigan, boshqa tillarga to'g'ridan-to'g'ri muqobilini topish qiyin bo'lgan ana shunday fundamental tushunchalardan biri — "andisha" konseptidir. Tilda bilimlar qay tarzda aks ettirilgan, bilimlar inson miyasida qay tarzda shakllanadi, insonga nima u tomonidan qabul qilinayotgan so'zni tushunish va xotirada aynan uning mulohazasining dastlabki maqsadiga mos keluvchi so'zni topish imkonini berishi bilan bog'liq qator muammolar ko'zga tashlanadi.

Andisha so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, "fikr", "o'ylash" ma'nosini anglatib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi semalari keltirilgan:

1) oqibatini o'ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza. Andishaning oti qo'rqoq. (Maqol). G'o'zapoyangizni juda o't bosib ketibdi-yu, – cho'chitib yubormaylik degan andisha bilan ohista so'radik.(Gazetadan);

2) umuman fikr, mulohaza. Qandaydir andisha tutdi tilini. (Asqad Muxtor);

3) sharm-hayo, or-nomusga amal hissi. Biz Zulfiya opaning yonlarida bo'lib u kishidan nafaqat jurnal ishini, odob andishani, halollikni ham o'rgandik. (Saodat jurnalidan). Halol va pok, vijdonli hamda insofli bo'latlik, andisha va hayoni unutmaylik. (Gazetadan) (O'TIL, I, 87)

Ma'lumki, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayon. Tilda paydo bo'lgan leksik qatlamning ma'nosi, qo'llanish doirasi bevosita shu tildan foydalangan xalq dunyoqarashi, mentaliteti va madaniyatini ochib beradi. Maqol – jamiyat "parchasi"ning modelidir. Jamiyatning madaniyat modellaridan hisoblangan maqollarda milliy mentalitet, urf-odat, an'ana kabilar aks etadi. Maqollar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn bo'lib, bir til, hatto o'zaro yaqin bo'lgan, umuman, bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy mazmunni va struktur

[5] Арутюнова Н. Д. Логический анализ языка. Ментальные действия. - М.: Наука, 1993. – С. 38.

[6] Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – Москва: Гнозис, 2004; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособне для студентов высших учебных заведений – Москва, 2001; Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесность: Антология/ под. ред. В.П. Нерознака. Москва,1997; Арутюнова Н. Д. Логический анализ языка. Ментальные действия. Москва: Наука, 1993; Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование// Вестник ВГУ, Серия «Лингвистика и межкультурная коммуникация», 2004, №1; Бижева, З. Х.Культурные концепты в адыгской языковой картине мира: автореферат дис. ... доктора филологических наук, 2009 Вежбицкая А., Язык. Культура. Познание. - М.: Русские словари, 1996. Ю.С.Степанов. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. - М., 2007.

o‘xshashlikni tashkil etishi mumkin. Shu ma’noda maqol xalqning turmush tarzi, dunyoqarashidan hikoya qiladi, bu esa madaniyatlararo muloqotda kommunikativlik vazifasi nihoyatda zarurligidan dalolatdir. Binobarin, xalqlar, elatlar va tillar farqlansa-da, maqollarning ifoda mazmuni bir-biriga muqobil tarzda tushishi mumkin. Bu esa, albatta, madaniyatlararo muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, xalqlar hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar, mehnat munosabatlarining rivojlanib borishi, hayotiy tajribalarining oshishi maqollarning mavzu doirasining kengayishiga olib keladi. Har bir xalqning turmush tarzi kasb mashg‘ulotlari, geografik muhiti xalqqa ham, xalq ijodiyotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib boradi.

Biroq xalq maqollarida ushbu konseptning semantik ko‘lami lug‘atviy ma’nolardan ancha keng va ziddiyatli ekanligi namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek maqollarida “andisha” konsepti asosan ikki yirik qutbda yuzaga keladi, ya’ni o‘zida ijobiy va salbiy baho semasi namoyon bo‘ladi:

1. Andishaning ijobiy baho semasi. O‘zbek mentalitetida andisha — madaniyatlilik, tarbiya va jamiyatda o‘zaro muvozanatni saqlash kafolatidir. Maqollarda andisha kishining ma’naviy ustunligi, aqlli va andishali insonning har qanday vaziyatda ham yutib chiqishi ramzi sifatida keladi: “Andisha qilganni qo‘rqdi dema” Mazkur maqolda “andisha” leksemasi insonni ma’naviy jihatdan yuksaltiruvchi, uni janjal va nizolardan uzoq tutuvchi komillik belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq donishmandligi andishani tuban hissiyot bo‘lgan qo‘rquv va irodasizlikdan qat’iy ajratadi. Ya’ni, andishali insonning muayyan vaziyatda (masalan, qo‘pollikka qo‘pollik bilan javob qaytarmay) jim turishi yoki yon berishi uning zaifligidan emas, aksincha, ichki kuchi va madaniyatidan dalolat degan qarashni ushbu maqol semantikasida kuzatishimiz mumkin. “Andishalining oldidan o‘t, andishasizdan qochib qutul”. Mazkur maqolda “andisha” leksemasi shaxsning ijtimoiy muloqotdagi ishonchliligi va xavfsizligi o‘lchovi sifatida nihoyatda yuqori ijobiy baholangan. “Oldidan o‘t” (ya’ni maslahatlash, fikrini ol, hurmat ko‘rsat) birligi orqali andishali insonning ijtimoiy nufuzini va uning atrofdagilar uchun ma’naviy mayoq ekanligini ifodalaydi. Bunday shaxs bilan muloqot qilish har doim ijobiy natijaga olib kelishi maqolda ifodalangan.

2. Andishaning salbiy baho semasi. O‘zbek xalq maqollarida “andisha” tushunchasi pragmatik xarakterga ega bo‘lib, uning tarkibida muayyan sharoitlarda salbiy baho semasi ham faollashadi. Xalq o‘zining turmush tajribasidan kelib chiqib, me’yoridan ortiq andishaning, ortiqcha istihola va tortinchoqlikning shaxsiy huquq va chegaraning poymol bo‘lishi haqida paremiyalarida aks ettiradi. Xususan, “Andishaning oti — qo‘rqoq” maqolida jamiyatda andishasiz, surbet kimsalar tomonidan andishali insonning bosiqligi va madaniyati ko‘pincha noto‘g‘ri baholanishi namoyon bo‘ladi. Mazkur paremiyada andisha leksemasi tarkibidagi madaniyat, tavoze semalari jamiyat tomonidan “qo‘rqoqlik”, “ijodsizlik” va “ojizlik” semalari sifatida qabul qilinadi. “Andisha qilguncha, ish bitar” maqoli aynan vaqt omili bilan bog‘liq. Keskinlik, chaqqonlik va qat’iyat talab etiladigan amaliy vaziyatlarda andisha qilish harakatga to‘sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi. Mazkur lisoniy birlik orqali hayotda fursatni boy berish, haddan tashqari andisha qilib tortinib turish oqibatida maqsaddan uzoqlashish tushunchasini ifodalaydi. Chaqqon va andishasiz qatlam real hayotda moddiy yoki ijtimoiy maqsadga tezroq erishishi ushbu maqol zamirida achchiq ironiya orqali ko‘rsatilgan.

O‘zbek xalq paremiyalarida “andisha” konsepti vaziyatli-pragmatik xarakterga ega. U o‘zbek xalqining real turmush sirlarini, hayotga real ko‘z bilan qarashini hamda ijtimoiy muloqotda lisoniy-madaniy me’yorga amal qilish lozimligini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy model vazifasini o‘taydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “andisha” konseptining maqollardagi semantik ko‘lami lug‘atviy ma’nolardan ancha keng bo‘lib, o‘zida ijobiy va salbiy baho semalarining ziddiyatli oppozitsiyasini namoyon etadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Арутюнова Н. Д. Логический анализ языка. Ментальные действия. - М.: Наука, 1993. – С. 38.
2. Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесностиь: Антология/ под. ред. В.П. Нерознака. -М.,1997. – С. 4.
3. Бижева, З. Х.Культурные концепты в адыгской языковой картине мира: автореферат дис. ... доктора филологических наук, 2009
4. Вежбицкая А., Язык. Культура. Познание. - М.: Русские словари, 1996. Ю.С.Степанов. Концепты. Тонкая пленка цивилизатсии. - М., 2007.
5. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – Москва: Гнозис, 2004;
6. Исмоилов Ғ. Оламнинг фразеологик манзарасида “инсон” концепти // Ўзбек тили ва адабиёти. –№6. - Тошкент, 2015. - Б.22.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособне для студентов высших учебных заведений – Москва, 2001;
8. Неретина С. С. Петр Абеляр. Тео-логические трактаты. - М., 1995. - С. 119.
9. Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование// Вестник ВГУ, Серия «Лингвистика и межкультурная коммуникатсия», 2004, №1;
10. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. - М., 1997. – С. 43.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати - I. - Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси , 2006-2008. I-2006,-680 б.
12. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Т.,1990.